

O'zbekiston Professional futbol ligasi
SUPERLIGA VA PRO LIGA REGLAMENTI
2023

UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE



Mazkur Reglament (bundan buyon – Reglament) O'zbekiston Professional futbol ligasi Ijroiya qo'mitasining 2022-yil 16-dekabrda yig'ilishida ma'qullangan. Ushbu Reglament O'zbekistonda professional futbol klublari o'rtasida 2023-yilgi musobaqalarni o'tkazishning shartlari va nizomlarini belgilovchi me'yoriy hujjatdir. U FIFA, OFK, O'FA, O'zPFL ustavlari hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan.



UZBEKISTAN PROFESSIONAL FOOTBALL LEAGUE

Mundarija

1-bob	Umumiy qoidalar	6
2-bob	Musobaqa o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar	6
3-bob	Musobaqani boshqarish tartibi	7
4-bob	Musobaqa o'tkaziladigan joy	7
5-bob	Superliga va U21 chempionati formati	7
6-bob	U19 chempionati formati	8
7-bob	Pro liga formati	8
8-bob	Musobaqa g'olibini aniqlash tartibi	9
9-bob	Musobaqa sovrindorlarini taqdirlash tartibi	9
10-bob	Futbol klubining musobaqadagi faoliyatini tartibga solish	10
11-bob	Musobaqa hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi	12
12-bob	Futbolchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ro'yxatga olish tartibi	14
13-bob	Legioner va xorijlik mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazish uchun alohida shartlar	15
14-bob	Liga ro'yxatidan o'tgan futbolchining musobaqadagi ishtirokini tartibga solish	17
15-bob	Futbol klubi, klub rasmiylari hamda futbolchilar majburiyatini tartibga solish	19
16-bob	Rasmiy uchrashuvni o'tkazish tartibi	21
17-bob	Musobaqa qatnashchisining libosiga qo'yiladigan talablar	24
18-bob	Futbol klubining OAV bilan ishlashini tartibga solish	26
19-bob	Futbol klubining musobaqada ishtirok etishi uchun moliyaviy shartlar	26
20-bob	Liga komissarining musobaqadagi faoliyatini tartibga solish	27
21-bob	Musobaqada hakamlik qilishni tartibga solish	28
22-bob	Musobaqada nazoratchilik qilishni tartibga solish	29
23-bob	Hakam qaroriga shikoyat yoki e'tiroz berish tartibi	29



UZBEKISTAN

PROFESSIONAL FOOTBALL LEAGUE

To'liq va qisqa nomlar — atamalar ta'rifi

Boshqaruv

FIFA	Xalqaro futbol federatsiyalari assotsiatsiyasi
OFK	Osiyo futbol konfederatsiyasi
O'FA	O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi
O'zFHM	O'zbekiston futbol hakamlari markazi
O'zPFL	O'zbekiston professional futbol ligasi
HA	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy assotsiatsiyalari

Ishtirokchi

Professional futbol klubi	OFK litsenziyasini qo'lga kiritgan futbol klubi
Yarim professional futbol klubi	OFK litsenziyasini qo'lga kiritmagan futbol klubi
Musobaqa qatnashchisi	Musobaqada ishtirok etayotgan futbol klubi
Farm-jamoa	Professional futbol klubi qoshida tashkil etilgan zaxira jamoasi
FA	Futbol akademiyasi
FMM	Futbol mahorat maktabi
BO'FM	Bolalar-o'smirlar futbol maktabi
BO'SM	Bolalar-o'smirlar sport maktabi

Musobaqa

Musobaqa	O'zPFL tomonidan o'tkaziladigan musobaqa
Superliga	O'zbekiston professional futbol klublari ishtirokidagi oliy toifali musobaqa
Pro liga	O'zbekiston professional va yarim professional futbol klublari ishtirokidagi birinchi toifali musobaqa
U21 chempionati	Superliga klublari qoshidagi 22 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasida o'tkaziladigan musobaqa
U19 chempionati	Superliga va Pro liga klublari qoshidagi 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasida o'tkaziladigan musobaqa
Rasmiy uchrashuv (uchrashuv)	Musobaqa doirasida o'tkaziladigan rasmiy o'yin

Rasmiy

Liga komissari	O'zPFL tomonidan uchrashuvning tashkil etilishi va o'tkazilishini nazorat qilish uchun tayinlangan shaxs
Inspektor	O'zFHM tomonidan tayinlangan va uchrashuv davomida hakamlarni baholab boradigan shaxs
Hakam	O'zFHM tomonidan futbol o'yini qoidalari va tartibga soluvchi boshqa hujjatlarga muvofiq uchrashuvni nazorat qilish va boshqarish uchun tayinlangan shaxs
VAR	Video yordamchi hakam
Stadion rasmiysi	Uchrashuv o'tadigan stadion uchun javobgar shaxs
Klub rasmiysi	Klub uchun javobgar bo'lgan hamda O'zPFL ro'yxatidan o'tgan futbolchidan tashqari istalgan shaxs
Uchrashuv rasmiysi	Hakamlar, inspektor hamda Liga komissari
Xavfsizlik uchun mas'ul	Ichki ishlar, Milliy gvardiya, FVV xodimlari, shuningdek, klubning xavfsizlik bo'yicha ofitseri, stadion styuardlari
Mahalliy koordinator	HA mas'ul xodimi
Legioner	O'zbekiston futbol klubiga ishlash uchun taklif etilgan chet ellik sportchi
Xorijiy mutaxassis	O'zbekiston futbol klubiga ishlash uchun taklif etilgan xorij fuqarosi

Boshqalar

Mehnat shartnomasini ro'yxatga olish	Futbol klubga tegishli futbolchi yoki rasmiy shaxsni musobaqada ishtirok etishi uchun mehnat shartnomasini ro'yxatdan o'tkazish jarayoni
Transfer oynasi	Futbolchining kelgusi yoki joriy musobaqada ishtirok etishi uchun u klubdan bu klubga o'tishi mumkin bo'lgan davr
Transfer	Futbolchining musobaqada ishtirok etishiga ruxsat berilishi bilan yakunlangan bir klubdan boshqasiga o'tishi
Transfer shartnomasi	Futbolchining o'tish tartibi, muddati va shartlari (shu jumladan, xarajatlarni qoplash shartnomasi mavjudligida futbolchilarning o'qitilishi, tayyorlanishi, mahoratini takomillashtirishi uchun sarflangan xarajatlarni to'lash)ni belgilovchi, futbol klubi yoki futbol klubi va sport maktabi o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama kelishuv
Ijara shartnomasi	Ikki klub va futbolchi o'rtasida tuziladigan, o'tishning tartibi, muddati va shartlari (shu jumladan, to'lovlar)ni belgilaydigan uch tomonlama shartnoma
XTS	Xalqaro transfer sertifikat
Sport mavsumi	kalendar yili doirasida rasmiy musobaqaga tayyorgarlik ko'rish va bevosita musobaqa vaqtini o'z ichiga olgan davr. Musobaqa davri uning qatnashchilari o'rtasida o'tkaziladigan birinchi rasmiy uchrashuv kunidan boshlanadi va oxirgi rasmiy uchrashuv kuni bilan yakunlanadi.



UZBEKISTAN
 PROFESSIONAL FOOTBALL
 LEAGUE

1-bob

Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Reglament Superliga va Pro liga musobaqalarini (keyingi o'rinlarda — Musobaqa) o'tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. O'zPFL (keyingi o'rinlarda — Liga) musobaqani O'FA bilan imzolangan musobaqalarni o'tkazish huquqini taqdim etuvchi shartnoma asosida tashkil qiladi. Musobaqa doirasidagi futbol uchrashuviga (keyingi o'rinlarda — rasmiy uchrashuv yoki uchrashuv) hakam va nazoratchilar O'zFHM bilan imzolangan shartnoma asosida jalb qilinadi.

1.3. Mavsum yakunida Liga tashkilot Ijroqo'miga xarajatlar yuzasidan moliyaviy hisobot taqdim etadi.

1.4. Mazkur Reglament ikki — o'zbek va ingliz tillarida chop etilgan. Ikki til o'rtasida ehtimoliy tafovut vujudga kelsa, u holda o'zbek tilida yozilgan qismi ustuvor hisoblanadi.

2-bob

Musobaqa o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar

2.1. Musobaqalar:

- O'zbekiston milliy chempionatini professional darajada tashkil etish va bu orqali mamlakat futboli rivojiga hissa qo'shish;
- musobaqa ishtirokchilari uchun yaxshi saviyadagi rasmiy uchrashuvlar tashkil qilish orqali, futbol klublarida to'p surayotgan futbolchilar mahorat darajasini oshirishga erishish;
- O'zbekiston terma jamoalariga nomzod futbolchilar sonini ko'paytirish hamda murabbiylar uchun tanlov imkoniyatini kengaytirish;
- futbol muxlislarining hordiq chiqarishlarini tashkil etish, ular uchun raqobatbardosh chempionat tashkil etib berish;
- O'zbekiston futbolini targ'ib etish va shu yo'l orqali o'zbekistonlik futbolchilarning chet el klublari nazariga tushishiga erishish kabi maqsadlarni ifoda etadi.

2.2. Musobaqalarni o'tkazishda:

- O'zbekiston milliy hamda olimpiya terma jamoalarining xalqaro miqyosdagi rasmiy uchrashuvlarini inobatga olgan holda milliy chempionat uchrashuvlarini FIFA hamda OFK nizomlari asosida tashkil qilish;
- O'zbekiston futbol klublarining xalqaro musobaqalardagi ishtirokiga ko'maklashishni ko'zlab taqvim rejalar ishlab chiqish va bunda FIFA hamda OFK tomonidan o'tkaziladigan xalqaro musobaqalarni, O'zbekistonda keng nishonlanadigan bayram tadbirlari hamda boshqa fors-major holatlarni inobatga olish;
- Superliga hamda Pro liga o'rtasidagi tafovutning kamayib borishiga erishish, bunda mazkur ikki musobaqa qatnashchilarining professional futbol klubi uchun OFK tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro litsenziyalash talabiga javob berishi holatini nazorat qilish;
- OFK tomonidan o'tkaziladigan rasmiy musobaqalarda ishtirok etadigan futbol klublarni aniqlash tizimini yaratish Liga vazifalariga kiradi.

3-bob

Musobaqani boshqarish tartibi

3.1. Musobaqani boshqarish, tashkil etish va o'tkazilishini nazorat qilish Liga tomonidan amalga oshiriladi.

3.2. Liga boshqa musobaqalar ham tashkil etadi va ularni quyidagi reglamentlar bilan tartibga soladi:

- "O'zbekiston kubogi, Superkubogi hamda o'tish musobaqalarini o'tkazish reglamenti";
- "Birinchi liga reglamenti".

3.3. Musobaqa ushbu Reglament, shuningdek, FIFA, OFK, O'FA, Liga tomonidan tasdiqlangan va Reglamentga kiritilgan qo'shimchalar, maxsus nizomlar, ilovalar asosida o'tkaziladi.

4-bob

Musobaqa o'tkaziladigan joy

4.1. Musobaqa "Litsenziyalash reglamenti" asosida ishlab chiqiladigan "Stadionlar to'g'risidagi nizom"ga muvofiq Liga tomonidan ruxsat etilgan stadionlarda o'tkaziladi.

4.2. Musobaqa qatnashchisi o'z stadioniga ega bo'lmasa hamda uy uchrashuvini o'tkazish uchun boshqa tashkilotga qarashli stadion bilan shartnoma tuzish majburiyati yuzaga kelsa, u holda mazkur shartnoma Liga ishtirokida uch tomonlama tuzilishi talab etiladi.

4.3. Fors-major holatida uchrashuvni o'tkazish uchun stadionni o'zgartirishga to'g'ri kelsa, mezbon futbol klubiga Liga bilan uch tomonlama kelishuvga erishgan stadionlardan birida rasmiy uchrashuvni o'tkazish uchun ruxsat beriladi.

4.4. Rasmiy uchrashuvdan bir kun avval mezbon klub Liga komissariga stadionning o'yinga tayyorgarligi to'g'risida dalolatnoma taqdim etadi. Liga komissari mazkur dalolatnomasiz uchrashuvni o'tkazmaslikka haqli.

5-bob

Superliga va U21 chempionati formati

5.1. Superliga va U21 chempionati jami 26 turdan iborat ikki davrali tizimda o'tkaziladi. Bunda har bir klub 13 ta uy va 13 ta safar uchrashuvida ishtirok etadi.

5.2. Superligada 13 va 14-o'rinni egallagan jamoalar kelasi mavsumni Superligada o'tkazish imkoniyatini yo'qotadi va Pro ligaga tushiriladi.

5.3. Superligada 12-o'rinni egallagan jamoa mazkur musobaqadagi o'rnini saqlab qolish uchun Pro liganing uchinchi jamoasiga qarshi o'tish o'yinida ishtirok etadi.

5.4. U21 chempionati uchrashuvi asosiy tarkib ishtirokidagi uchrashuvdan bir kun keyin o'tkaziladi.

5.5. Liga maydoni talab darajasida bo'lmagan U21 jamoasi ishtirokidagi uchrashuvni asosiy stadionda o'tkazishni talab qilish huquqiga ega.

5.6. Superliga musobaqasiga berger tizimida qur'a tashlanadi. Bunda Liga stadionlar, shaharlar hamda boshqa asosli sabablardan kelib chiqib, futbol klublarini qur'a oldidan alohida savatlarga yoki juftliklarga ajratib olish huquqiga ega.

5.7. Mazkur bobning 5-bandida ko'rsatilgan uchrashuvga Pro ligada uchinchi bo'lgan klub maydoni mezbonlik qiladi.

6-bob

U19 chempionati formati

6.1. Superliga va Pro liga klubining U19 jamoasi U19 chempionatida birgalikda ishtirok etadi.

6.2. U19 chempionatida har bir jamoa o'zaro bir martadan maydonga tushadi.

6.3. U19 chempionatiga berger tizimiga ko'ra qur'a tashlanadi va jamoalarning uy-safar uchrashuvlariga shu yo'l bilan aniqlik kiritiladi.

7-bob

Pro liga formati

7.1. Pro liga jami 22 turdan iborat ikki davrali tizimda o'tkaziladi. Bunda har bir klub 10 ta uy va 10 ta safar uchrashuvida ishtirok etadi.

7.2. Pro liganing 22 tur uchrashuvlari yakuniga ko'ra 1 hamda 2-o'rinni egallagan futbol klublari Superligaga to'g'ridan-to'g'ri yo'llanmani qo'lga kiritadi.

7.3. Mazkur reglamentning 5.3-bandidan kelib chiqib, Superliganing 12-jamoasi bilan o'tish o'yinida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritish uchun Pro liganing 3-5 o'rinlaridan joy olgan futbol klublari o'zaro pley-off o'yinida ishtirok etadi.

7.4. Shu bobning 3-bandidan kelib chiqib, Pro liganing 22 tur uchrashuvlari yakuniga ko'ra ikki bosqichli pley-off o'yinlari poytaxt Toshkent shahrida markazlashgan holda o'tkaziladi.

Pley-offning ilk bosqichida Pro ligada 4 hamda 5-o'rinni qo'lga kiritgan futbol klublari o'zaro maydonga tushadi. Mazkur juftlik g'olibi Pro ligani 3-o'rinda yakunlagan futbol klubiga qarshi pley-offning ikkinchi bosqichi uchrashuvida ishtirok etadi va g'olib futbol klubi reglamentning 5.3-bandiga ko'ra Superliganing 12-jamoasiga qarshi o'tish o'yinini o'z maydonida qabul qilish huquqini qo'lga kiritadi.

7.5. Shu bobning 4-bandida keltirilgan pley-off uchrashuvlarining asosiy vaqtida g'olib jamoani aniqlashning imkoni bo'lmasa, navbat qo'shimcha taymlarsiz penaltilar seriyasiga beriladi.

7.6. Shu bobning 4-bandida keltirilgan pley-off uchrashuvlarida Pro liganing 22 turi yakuniga ko'ra nisbatan yuqori o'rnida joylashgan futbol klubi nominal mezbon hisoblanadi.

7.7. Pro ligada 11-o'rinni egallagan jamoa kelasi mavsumni Pro ligada o'tkazish imkoniyatini yo'qotadi va Birinchi ligaga tushiriladi.

7.8. Pro liga musobaqasiga berger tizimida qur'a tashlanadi. Bunda Liga stadionlar, shaharlar hamda boshqa asosli sabablardan kelib chiqib, futbol klublarini qur'a oldidan alohida savatlarga yoki juftliklarga ajratib olish huquqiga ega.

8-bob

Musobaqa g'olibini aniqlash tartibi

8.1. Musobaqa qatnashchisining o'rni uning to'plangan ochkolari yig'indisiga ko'ra aniqlanadi.

8.2. Har bir uchrashuvdagi g'alaba uchun musobaqa qatnashchisiga 3 ochko, durang uchun 1 ochko, mag'lubiyat uchun 0 ochko yoziladi.

8.3. Ikki va undan ortiq qatnashchi to'plagan ochkolar teng bo'lib qolsa, ularning o'rni quyidagi ketma-ketlik bo'yicha aniqlanadi:

- o'zaro uchrashuv(lar) natijasiga ko'ra;
- o'zaro uchrashuvlarda olingan ochkolar natijasiga ko'ra;
- o'zaro uchrashuvlarda urilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar farqiga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda urilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar farqiga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda urilgan to'plar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda raqib maydonida urilgan to'plar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda erishilgan g'alabalar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda uchralgan mag'lubiyatlar sonining aks ta'siriga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda safar o'yinlarida erishilgan g'alabalar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda uy o'yinlarida uchralgan mag'lubiyatlar sonining aks ta'siriga ko'ra.

8.4. Mazkur bobning 3-bandidagi barcha ko'rsatkichlar teng bo'lib qolsa, qatnashchining U21 jamoasi (Pro liga klubi uchun U19 jamoasi) natijasiga e'tibor qaratiladi. Biroq vaziyat chempion yoki Chempionlar ligasida ishtirok etish huquqini beradigan o'rinlarni aniqlab berishni taqazo etayotgan bo'lsa, betaraf maydonda "oltin" uchrashuv o'tkaziladi.

8.5. O'zaro uchrashuv yoki uchrashuvlarda texnik mag'lubiyatga uchragan jamoa shu bobning 3 hamda 4-bandlardan istisno tariqada quyi o'rinni egallaydi.

8.6. Musobaqaning davom etishi va uning natijasini aks ettiradigan rasmiy ma'lumot Liga matbuot xizmati tomonidan tarqatiladi.

9-bob

Musobaqa sovrindorlarini taqdirlash tartibi

9.1. Superligada 1-o'rinni egallagan futbol klubiga O'zbekiston chempioni uchun atalgan maxsus kubok hamda 50 dona "oltin" medal taqdim etiladi.

9.2. Superliga chempioni muddatdan oldin aniqlansa, maxsus kubok hamda medallar futbol klubining keyingi rasmiy uy yoki safar uchrashuvida topshiriladi.

9.3. Superligada ikkinchi va uchinchi o'rinni egallagan klublarga 50 donadan "kumush" va "bronza" medallari topshiriladi.

9.4. U21 chempionatida 1, 2 va 3-o'rinni egallagan jamoalarga 35 donadan "oltin", "kumush" hamda "bronza" medallari topshiriladi.

9.5. U19 chempionatida 1, 2 va 3-o'rinni egallagan jamoalarga 35 donadan "oltin", "kumush" va "bronza" medallari topshiriladi.

9.6. Pro ligada 1-o'rinni egallagan klubga Pro liga kubogi hamda 35 dona medal taqdim etiladi.

9.7. Taqdirlash atributikalari Liga hisobidan tayyorlanadi.

10-bob

Futbol klubining musobaqadagi faoliyatini tartibga solish

10.1. Futbol klubining musobaqaga qo'shilishi yoki undan chiqib ketishi masalasi o'tgan mavsum musobaqasi natijasiga ko'ra aniqlanadi.

10.2. Futbol klubi musobaqada qaysi o'rinni egallashidan qat'i nazar agar u litsenziyalash talablarini bajara olmasa, O'FA tegishli qo'mitasi litsenziyalash tahlillari asosida o'z xulosasi bilan futbol klubini musobaqadan chetlatishni talab qilish huquqiga ega. Bunday holatda litsenziyalash talabini bajara olgan quyi liganing tartib bo'yicha keyingi futbol klubi mazkur qatnashchi o'rnini egallaydi.

10.3. Yakuniga yetgan mavsum natijasiga ko'ra yuqori toifadagi ligada qatnashish huquqini qo'lga kiritgan futbol klubi ushbu huquqdan voz kechsa yoki unda mazkur ligada ishtirok etish uchun Reglament, me'yoriy hujjatlar asosida qandaydir to'siq (cheklov) bo'lsa, uning o'rnini mavsum yakuniga ko'ra keyingi o'rinni egallagan boshqa futbol klubi bilan to'ldiriladi. Bunda mazkur futbol klubi litsenziyalash talablariga javob berishi talab etiladi.

10.4. Superliga futbol klubi OFK tomonidan yangi mavsum uchun taqdim etiladigan litsenziyani qo'lga kiritmasa, mazkur futbol klubi ilk yozgi transfer oynasida faqatgina 2001-yil va undan kichik yoshda bo'lgan yangi futbolchini, shuningdek, ilk qishki transfer oynasida faqatgina mahalliy futbolchi ro'yxatdan o'tkazishi uchun ruxsat etiladi.

10.5. Faqatgina OFK litsenziyasini qo'lga kiritgan futbol klubiga O'FA tomonidan professional futbol klubi maqomi beriladi.

10.6. Futbol klubi joriy yilning 22-mayiga qadar "Litsenziyalash reglamenti" talablarini bajarishi shart. Bunda:

- sport, infratuzilma, ishchi-xodimlar hamda huquqiy mezonlar bo'yicha talablar joriy yilning 28-fevraliga qadar;
- moliyaviy mezonlar bo'yicha talablar joriy yilning 15-apreliga qadar bajarilishi lozim.

10.7. "Litsenziyalash reglamenti" va O'FA Ijroiya qo'mitasi qaroridan kelib chiqib, futbol klubi tarkibida U21, U19, U16, U14, U12, U10, futzal, U18 futzal, ayollar, U16 ayollar jamoalari tashkil qilinishi lozim. Mavjud me'yoriy hujjatlar asosida futbol klubi qoshida qanday jamoalar bo'lishi majburiy ekanligi O'FA tomonidan alohida belgilab beriladi.

10.8. Superliga futbol klubining U21 jamoasi O'zbekiston U21 chempionatida, Superliga va Pro liga klubining U19 jamoasi esa O'zbekiston U19 chempionatida ishtirok etishi talab etiladi.

10.9. O'zbekiston milliy va olimpiya terma jamoasiga, shuningdek, U20 O'zbekiston terma jamoasining qit'a va jahon chempionati final bosqichi uchrashuvlariga uch va undan ko'p futbolchisi jalb qilingan futbol klubi Musobaqa doirasidagi uchrashuv sanasini boshqa kunga ko'chirishni so'rab murojaat qilishga haqli.

10.10. OFK musobaqalari sanasi o'zgargan taqdirda Liga mazkur musobaqada ishtirok etayotgan futbol klubi manfaatidan kelib chiqib, uning ichki musobaqa doirasidagi uchrashuvini boshqa sanaga ko'chirishga haqli.

10.11. Uchrashuvga uzrsiz sababga ko'ra kelmagan yoki boshqa sababga ko'ra texnik mag'lubiyat qayd etilgan jamoaga 0:3 hisobidagi texnik mag'lubiyat, raqib jamoaga esa 3:0 hisobidagi texnik g'alaba yoziladi.

10.12. Mazkur bobning 11-bandi bo'yicha ikki marta texnik mag'lubiyat qabul qilib olgan futbol klubi Liga Ijroqo'mi qarori bilan musobaqa qatnashchilari safidan chiqariladi.

10.13. Futbol klubi uchrashuvni davom ettirishdan bosh tortsa va o'sha vaqtda hisob 0:3 dan yirikroq ko'rinishda bo'lsa, uchrashuvni davom ettirishdan bosh tortgan klubga mavjud hisob bilan texnik mag'lubiyat yoziladi.

Uchrashuv yakuniga ko'ra futbol klubiga texnik mag'lubiyat yozish zaruriyati vujudga kelsa va o'sha jamoa uchrashuvda 0:3 dan yirikroq hisobda mag'lubiyatga uchragan bo'lsa, texnik mag'lubiyat mavjud hisob bilan qayd etiladi.

10.14. Musobaqa qatnashchilari safidan chetlashtirilgan futbol klubi shu musobaqa doirasidagi uchrashuvlarning 50 foizidan kamini o'tkazgan bo'lsa, uning natijalari bekor qilinadi. Ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchini saqlab qoladi.

Musobaqa qatnashchilari safidan chetlashtirilgan futbol klubi uchrashuvlarning 50 foizi va undan ko'pini o'tkazgan bo'lsa, bunday klubga qolgan uchrashuvlar uchun texnik mag'lubiyat (0:3), raqib futbol klubiga esa texnik g'alaba (3:0) yoziladi. Ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchini saqlab qoladi.

Fors-major holati sabab musobaqa formatiga o'zgartirish kiritilgan bo'lsa, uchrashuvlar foizini aniqlash shu o'zgarishga asosan hisoblanadi.

10.15. Futbol klubi Reglament asosida musobaqa qatnashchilari safidan chiqarib yuborilsa, ammo faoliyatini davom ettirsa, u holda mazkur klubga Liga Ijroqo'mi qarori bilan Liga oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarish shartida kelasi mavsumni bitta quyi ligadan boshlash imkoniyati berilishi mumkin.

10.16. Agar futbol klub faoliyatini tugatsa, u Liga qatnashchilari safidan chetlashtiriladi. Har qanday boshqa klub shu klubning nomi, atributlari, belgilari, ramzlari va tarixidan foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi. Agar mazkur klub faoliyatini qayta tiklasa, u holda o'z ishtirokini HA tomonidan o'tkaziladigan Ikkinchi liga musobaqasidan boshlashi talab etiladi.

10.17. Futbol klubi O'zbekiston qonunchiligi asosida o'z nomi yoki tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirsa, yangi klub avvalgi klubning huquqiy vorisi hisoblanadi va futbolchilar, murabbiylar, klubning boshqa xodimlari oldida oylik ish haqi hamda boshqa to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblardagi buzilishlar uchun to'liq javobgar bo'ladi. Shuningdek, u O'FA, Liga va O'zbekiston soliq organlari oldidagi qarzdorlikni to'lash uchun javobgar hisoblanadi.

10.18. Superliga klubi musobaqada futbolchining funksional holatini masofadan turib monitoring qilish imkonini beruvchi moslamadan foydalanishi hamda bu boradagi hisobotni O'FA uchun taqdim etishi talab etiladi.

10.19. O'FA yilda ikki marta futbol klubi safida ro'yxatdan o'tgan futbolchini jismoniy tayyorgarlik bo'yicha test sinovlaridan o'tkazishga haqli.

10.20. Superliga klubi stadionining yoritish tizimi "Stadionlar to'g'risidagi nizom"da keltirilgan talabga javob bermasa, Liga uchrashuvni yoritish tizimi talabga javob beradigan boshqa stadionda o'tkazish bo'yicha qaror chiqarishga haqli.

10.21. Futbol klubi va shu klub qoshidagi farm-jamoa qayd etgan natijasidan qat'iy nazar boshqa-boshqa musobaqada ishtirok etishi shart.

11-bob

Musobaqa hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi

11.1. Futbol klubi musobaqada ishtirok etish oldidan yangi mavsum uchun yillik xarajatlar smetasi loyahasini shu klubni moliyalashtiruvchi tashkilot hamda O'FA bilan kelishilgan holda tasdiqlagan bo'lishi talab etiladi.

11.2. Futbol klubiga futbolchini ro'yxatdan o'tkazish tasdiqlangan xarajatlar smetasi hamda klub o'z uy uchrashuvlarini o'tkazuvchi stadion akti Ligaga taqdim etilishi shartida ruxsat beriladi.

11.3. Futbol klubi uy uchrashuvlarini o'tkazuvchi va zaxira stadionlari aktini mavsumning ilk rasmiy uchrashuvi sanasidan kamida uch hafta avval Ligaga taqdim etishi talab etiladi.

11.4. Futbol klubidan talab qilinadigan hujjatlarni Liga uchun rasmiylashtirish huquqi klub rahbariyati tomonidan vakolatli shaxslarga (sport direktori, texnik direktor yoki litsenziyalash menejeri) beriladi.

11.5. Futbol klubi o'z rasmiysi va futbolchisini MyLeague platformasi orqali onlayn ro'yxatdan o'tkazishi lozim. Ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

Klub rasmiysi uchun:

- fuqarolik pasporti yoki ID karta;
- futbol klubi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi;
- O'zbekistonda ishlash huquqini beruvchi tasdiqnoma (xorijlik mutaxassis uchun);
- mutaxassislik bo'yicha diplom yoki sertifikat;
- fotosurat.

Klub murabbiyi uchun:

- fuqarolik pasporti yoki ID karta;
- futbol klubi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi;
- O'zbekistonda ishlash huquqini beruvchi tasdiqnoma (xorijlik murabbiy uchun);
- talab etilgan murabbiylik litsenziyasi;
- fotosurat.

Futbolchi uchun:

- fuqarolik pasporti yoki ID karta;
- tug'ilganlik haqidagi guvohnoma (ilk mehnat shartnomasini imzolayotgan futbolchi uchun);
- futbol klubi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi;
- O'zbekistonda ishlash huquqini beruvchi tasdiqnoma (xorijlik futbolchi uchun) hamda XTS;
- futbolchi pasporti;
- transfer shartnomasi, ijara shartnomasi yoki sobiq klubi bilan mehnat munosabatlari bekor qilinganligi tasdiqlovchi hujjatlardan biri: mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi kelishuv, klub va futbolchi o'rtasidagi munosabatlar yakuni bo'yicha o'zaro e'tiroz mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjat;
- mashg'ulot kompensatsiyasi shartnomasi yoki mashg'ulot kompensatsiyasidan voz kechish to'g'risidagi hujjat (23 yoshgacha bo'lgan futbolchi uchun);
- futbolchining talab etilgan tibbiy tekshiruvdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjat;
- fotosurat.

Bunda platformaga yuklangan har qanday hujjat asl nusxasi bilan mos kelishi shart.

11.6. Futbol klubi faqatgina onlayn ro'yxatdan o'tkazilgan vakili uchun litsenziya olish huquqiga ega.

11.7. Musobaqada ishtirok etish huquqini beruvchi litsenziya hujjatlari rasmiylashtirilganidan so'ng (talab etilgan hujjatlar to'liq taqdim etilgan hamda klub

vakillari elektron bazaga kiritilgach) litsenziyalar klubning vakolatli vakiliga uning imzosi bilan tasdiqlangan shaxsiy mas'uliyati ostida taqdim etiladi.

11.8. Futbol klubining vakolatli vakili mazkur bobning 7-bandi bo'yicha qabul qilib olgan litsenziya yo'qotilishi yoki boshqa sabab bilan qayta chop etilishi zaruriyati vujudga kelsa hamda mazkur holat klub aybi bilan ro'y bersa, u holda futbol klubi litsenziyani jarima to'lovi evaziga qayta qo'lga kiritadi.

11.9. "Litsenziyalash reglamenti"ga asosan klub o'z rahbariyati tarkibini O'zPFL ro'yxatidan o'tkazish shart. Bunda:

- bosh direktor (menejer);
- sport direktori;
- texnik direktor;
- xavfsizlik bo'yicha ofitser;
- matbuot kotibi;
- bosh murabbiy;
- katta murabbiy (yordamchi murabbiy);
- jismoniy tayyorgarlik bo'yicha murabbiy;
- darvozabonlar murabbiyi;
- tahlilchi;
- ma'mur;
- shifokor;
- massajchi (fizioterapevt);
- yuriskonsult;
- yoshlar bilan ishlash tizimi mas'uli (akademiya yoki futbol maktabi direktori);
- U19, U16, U14, U12, U10 jamoalari bosh murabbiylari;
- ayollar jamoasi bosh murabbiyi;
- ayollar U16 jamoasi bosh murabbiyi;
- futzal jamoasi bosh murabbiyi;
- futzal U18 jamoasi bosh murabbiyi.

"Litsenziyalash reglamenti" hamda futbol klubining qaysi musobaqada ishtirok etishiga qarab, uning Liga ro'yxatidan o'tishi shart bo'lgan rasmiylari ro'yxati tartibga solinadi.

12-bob

Futbolchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ro'yxatga olish tartibi

12.1. Futbolchini musobaqa uchun ro'yxatdan o'tkazish 2022-yilning 10-dekabr sanasidan boshlanadi. Superliga klubi uchun futbolchini ro'yxatdan o'tkazish 2023-yilning 15-fevral sanasida, Pro liga klubi uchun shu yilning 28-fevral sanasida yakuniga yetadi. Bunda Pro liga klubi legioner futbolchini faqatgina shu yilning 15 fevraliga qadar ro'yxatdan o'tkazishi uchun ruxsat etiladi.

Yozgi transfer oynasi 2023-yilning 5-iyulidan shu yilning 31-iyuliga qadar davom etadi.

12.2. Futbol klubi futbolchi yoki murabbiy bilan yilning istalgan davrida mehnat shartnomasi tuzish hamda unga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Mazkur mehnat

shartnomasi yoki unga kiritilgan o'zgarish imzolangan kundan boshlab 1 oy ichida Liga ro'yxatidan o'tkazilishi talab etiladi.

12.3. Klub o'z vakili bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilsa, Liga uch kun ichida bu haqda yozma ravishda ogohlantirilishi hamda ozod etilgan shaxs litsenziyasi Ligaga qaytarilishi shart.

12.4. Futbol klubi qishki transfer oynasida 10 nafar (Pro liga bundan mustasno) va yozgi transfer oynasida 5 nafardan ortiq (Pro liga ham shu jumladan) bo'lmagan yangi futbolchini ro'yxatdan o'tkazishi mumkin.

Shu mavsumda Superligaga qatnashchilari safiga qo'shilgan futbol klubiga qishki transfer oynasida 15 nafargacha yangi futbolchini ro'yxatdan o'tkazish uchun ruxsat etiladi.

12.5. Futbol klubi tomonidan ijaraga olinayotgan futbolchi mazkur bobning 4-bandiga ko'ra yangi futbolchi sifatida qayd etiladi (o'tgan mavsum yakunida shu klub safida ijara asosida to'p surgan yoki boshqa futbol klubiga ijaraga berilgan futbolchi bundan mustasno).

12.6. Futbol klubi 2001-yil va undan kichik yoshdagi yangi mahalliy futbolchi bilan (darvozabon uchun 2000-yil) shartnoma imzolasa, mazkur futbolchi mazkur bobning 4-bandida qayd etilgan limitdan tashqari ro'yxatdan o'tkaziladi.

12.7. Futbol klubi o'ziga qarashli bo'lgan futbol akademiyasi/maktabi yoki shu klubiga biriktirilgan FMM, BO'FM, BO'SM tarbiyalanuvchisini (2004 va undan keyin tug'ilgan) Superliga va Pro liga uchun faqatgina transfer oynasi vaqtida Liga ro'yxatidan o'tkazishga haqli.

12.8. Futbol klubi o'ziga qarashli/biriktirilgan akademiya/maktab, FMM, BO'FM yoki BO'SM tarbiyalanuvchisini U19 chempionati uchun yilning istalgan davrida Liga ro'yxatidan o'tkazishga haqli.

12.9. Futbol klubi boshqa klubga qarashli akademiya/maktab, FMM, BO'FM yoki BO'SM tarbiyalanuvchisini U19 chempionati uchun 2023-yilning 15-sentabriga qadar Liga ro'yxatidan o'tkazishi uchun ruxsat etiladi.

12.10. Futbolchiga litsenziya uning tibbiy ko'rikdan o'tganligi borasidagi ma'lumotnoma taqdim etilishi shartida beriladi. Bunda tibbiy ko'rik xulosalari Liga tomonidan belgilab berilgan tartib bo'yicha olib borilishi va futbolchining har bir tekshiruv bo'yicha tahlili alohida-alohida xulosa bilan taqdim etilishi shart.

13-bob

Legioner va xorijlik mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazish uchun alohida shartlar

13.1. Legioner yoki xorijlik mutaxassis bilan shartnoma tuzish jarayonida futbol klubi quyidagilarni hisobga olishi talab etiladi:

- futbol klubi 2023/24-yilgi mavsum uchun OFK litsenziyasini qo'lga kiritgan bo'lishi shart (2023-yilgi mavsumning qishki transfer oynasi hamda legioner futbolchi bilan amaldagi mehnat shartnomasi mavjud bo'lgan klub bundan mustasno);

- legioner yoki xorijlik mutaxassis bilan shartnoma imzolashdan avval futbol klubi mazkur shartnoma loyihasini O'FA bilan kelishishi va shundan keyingina uni imzolashi talab etiladi;
- futbol klubi legioner yoki xorijlik mutaxassis bilan imzolangan mehnat shartnomasini Liga ro'yxatidan o'tkazishi uchun O'FA yuridik bo'limi uning har bir sahifasini muhrlagan hamda imzolagan bo'lishi shart;
- ro'yxatdan o'tkazilgan legioner yoki xorijlik mutaxassisga musobaqalarda ishtirok etish uchun litsenziya tegishli davlat organi tomonidan chet el fuqarosiga O'zbekistonda mehnat faoliyati huquqini beruvchi tasdiqnoma Ligaga rasman topshirilganidan so'ng beriladi.

13.2. Ro'yxatdan o'tkazilayotgan legioner Liga tomonidan to'rt toifa: oliy, birinchi, ikkinchi va uchinchi toifaga ajratib olinadi.

Oliy toifa:

- Yevropa yoki jahon chempionatining final bosqichi doirasida maydonga tushgan futbolchi;
- UEFA koeffitsientlar jadvalida dastlabki yetti o'rinda borayotgan mamlakatlar oliy divizionining yakuniga yetgan so'nggi mavsumida yoki davom etayotgan mavsumida kamida 10 ta o'yinda maydonga tushgan futbolchi.

Birinchi toifa:

- 2003-yil va undan keyin tug'ilgan, so'nggi ikki mavsum davomida o'z mamlakati terma jamoasining rasmiy musobaqalar doirasidagi o'yinlarida eng kamida ikki marta maydonga tushgan futbolchi.

Ikkinchi toifa:

- FIFA reytingida dastlabki 20 pog'onada borayotgan terma jamoa safida hech bo'lmaganda 1 ta rasmiy musobaqa doirasidagi o'yinda maydonga tushgan 1992-yil va undan keyin tug'ilgan futbolchi;
- o'z mamlakati milliy terma jamoasining rasmiy musobaqalar doirasidagi o'yinlarida so'nggi ikki yil davomida kamida 2 marta maydonga tushgan futbolchi.

Uchinchi toifa:

- Iсталgan legioner.

13.3. Legioner yoki xorijlik mutaxassis xizmatidan foydalanuvchi futbol klubi ularni yangi mavsum hisobidan Liga ro'yxatidan o'tkazish uchun bir martalik pullik to'lovni amalga oshiradi (birinchi toifali legioner bundan mustasno). Agar legioner yozgi transfer oynasida boshqa klub safiga o'tsa, uning yangi klubi legioner futbolchi uchun to'lov amalga oshirmaydi. Bunda:

- Oliy toifaga kiruvchi legioner uchun to'lov tasdiqlangan miqdorning teng yarmini tashkil qiladi;
- ikkinchi toifaga kiruvchi legioner uchun to'lov tasdiqlangan miqdorda amalga oshiriladi;
- uchinchi toifaga kiruvchi legioner uchun to'lov tasdiqlangan miqdorning ikki barobari miqdorida amalga oshiriladi;

- Pro liga klubi har qanday legioner uchun (birinchi toifali legioner bundan mustasno) bir xilda — tasdiqlangan miqdor ko'rinishining teng yarmida to'lov amalga oshiradi.

Futbol klubining legioner bilan amaldagi shartnomasi mavjud bo'lsa yoki futbol klubi o'z safida o'tgan mavsum ham harakat qilgan legioner bilan shartnomani uzaytirsa, mazkur holatda shu bobning 6-bandi ikkinchi xatboshisi inobatga olinadi hamda legioner uchun o'tgan mavsumdagi miqdordan kelib chiqib, to'lov amalga oshiriladi.

13.4. Futbol klubiga 6 nafargacha legionerni ro'yxatdan o'tkazish uchun ruxsat etiladi. Bunda ulardan biri (yoki hammasi) OFKga a'zo mamlakat fuqarosi bo'lishi shart (5+1).

13.5. Tizimida farm jamoasi mavjud futbol klubi mazkur farm jamoa uchun legioner ro'yxatdan o'tkazishga haqli. Bunda shu bobning 4-bandida qayd etilgan cheklov farm jamoa hamda futbol klubi uchun umumiy hisoblanadi.

13.6. Futbol klubi legionerni ro'yxatdan o'tkazishda quyidagi imtiyozlardan foydalanishi mumkin:

- agar legioner uzluksiz ketma-ket to'rt mavsumni O'zbekiston klublarida o'tkazgan bo'lsa va 2023-yilgi mavsum tartib bo'yicha uning ketma-ket beshinchi mavsumi bo'lsa, mazkur legioner uchun to'lov amalga oshirilmaydi;
- agar legioner bir klub safida ketma-ket ikkinchi mavsum uchun ham ro'yxatdan o'tkazilsa, mazkur futbolchi uchun belgilangan to'lov 50 foizga qisqartiriladi;
- agar legioner birinchi toifaga mansub bo'lsa, futbol klubi uni shu bobning 4-bandida qayd etilgan cheklov miqdoriga qo'shimcha ravishda ro'yxatdan o'tkazishi uchun ruxsat etiladi.

13.7. Liga quyidagi holatlarda legionerni ro'yxatdan o'tkazmaslikka haqli:

- legionerni ro'yxatdan o'tkazish uchun kelgan klubda OFK litsenziyasi mavjud bo'lmasa (2023-yilning yozgi hamda 2024-yilning qishki transferi uchun amal qiladi);
- legionerni ro'yxatdan o'tkazish uchun to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa;
- legioner bilan imzolangan mehnat shartnomasi O'FA bilan kelishilmagan bo'lsa;
- legioner bilan bog'liq qarzdorlik sabab O'FA yoki FIFA klubga nisbatan cheklov qo'ygan bo'lsa;
- ro'yxatdan o'tkazilgan legioner tegishli davlat organi tomonidan chet el fuqarosiga O'zbekistonda mehnat faoliyati huquqini beruvchi tasdiqnoma olmagan bo'lsa.

13.8. Legioner futbolchi va xorijiy mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun to'lov miqdori Liga Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

14-bob

Liga ro'yxatidan o'tgan futbolchining musobaqadagi ishtirokini tartibga solish

14.1. Liga futbol klubining futbolchi bilan tuzgan mehnat shartnomasini yilning istalgan davrida ro'yxatdan o'tkazadi. Biroq futbolchini musobaqa uchun ro'yxatga olish faqatgina transfer oynasi vaqtida amalga oshiriladi (U19 chempionati bundan mustasno).

14.2. Mehnat shartnomasi Liga ro'yxatidan o'tkazilgan futbolchining boshqa har qanday klub (ijara shartnomasi mavjud bo'lgan holat bundan mustasno) yoki Ligadan boshqa tashkilot o'tkazadigan musobaqa doirasida maydonga tushishi taqiqlanadi. Bunday holat aniqlansa, uning klubiga nisbatan jarima sanksiyasi qo'llaniladi.

14.3. Superliga klubi 35–40 nafar (2000–yil va undan katta 20 nafar futbolchiga ruxsat etiladi) futbolchini O'zPFL ro'yxatidan o'tkazishi talab etiladi. Futbol klubi 2004–yil va undan kichik yoshdagi futbolchini yuqoridagi cheklovdan tashqari ro'yxatdan o'tkazishga haqli. Bunda Superliga klubining umumiy futbolchilari soni 60 nafardan oshmasligi kerak.

14.4. U21 chempionatida 2001–yil va undan kichik yoshdagi futbolchilar hamda 2000–yil va undan kichik yoshdagi darvozabonlar to'p surishiga ruxsat etiladi.

14.5. Futbol klubi U21 chempionati qaydnomasiga 2000–yil va undan katta faqatgina 2 nafar futbolchini kiritish uchun ruxsat etiladi (2000–yilda tug'ilgan darvozabon bundan mustasno). Shuningdek, futbol klubi shu musobaqa qaydnomasiga U19 chempionatida kelishuv bitimi asosida ro'yxatdan o'tgan 2 nafar futbolchini kiritishga haqli.

14.6. Futbol klubi U19 chempionatida ishtirok etuvchi jamoasi uchun kamida 20 nafar 2004–yil (darvozabon uchun 2003) va undan keyin tug'ilgan futbolchini ro'yxatdan o'tkazish talab etiladi.

14.7. U19 chempionatida kelishuv bitimi bilan ro'yxatdan o'tish uchun faqatgina akademiya/futbol maktabi, BO'FM, FMM, BO'SM tarbiyalanuvchisiga ruxsat etiladi. Boshqa har qanday holatda futbolchi bilan mehnat shartnomasi tuzilgan bo'lishi talab etiladi.

14.8. Pro liga klubi 35–45 nafar (2003–yil va undan katta 25 nafar futbolchiga ruxsat etiladi) futbolchini Liga ro'yxatidan o'tkazishi talab etiladi. Futbol klubi 2004–yil va undan kichik yoshdagi futbolchini yuqoridagi cheklovdan tashqari ro'yxatdan o'tkazishga haqli. Bunda Pro liga klubining umumiy futbolchilari soni 60 nafardan oshmasligi talab etiladi.

14.9. Futbol klubiga OFK litsenziyasini qo'lga kiritish shartida Birinchi liga musobaqasi uchun o'z farm jamoasini ro'yxatdan o'tkazishga ruxsat beriladi. Bunda futbol klubining boshqa tashkilotlar hamda o'z rasmiylari oldida bajarilmay qolgan moliyaviy majburiyati bo'lmasligi talab etiladi.

14.10. Farm jamoa uchun 22–25 nafar futbolchi Liga ro'yxatidan o'tkazilishi talab etiladi.

14.11. Futbol klubi yoki farm jamoaning 2004–yil va undan keyin tug'ilgan futbolchisiga U19 chempionatida ishtirok etish uchun ruxsat etiladi.

14.12. Farm jamoa uchun ro'yxatdan o'tgan futbolchi shu klubning asosiy hamda U21 tarkibi uchun qaydnomaga kirishga haqli emas.

14.13. Futbol klubi boshqa bir futbol klubiga bir mavsumning o'zida 2 nafardan ortiq bo'lmagan futbolchini ijaraga berishga haqli.

14.14. Futbol klubi bir mavsum davomida umumiy hisobda 6 nafargacha futbolchini o'zi ishtirok etayotgan liganing boshqa klubiga ijaraga berishga haqli (2001-yil va undan keyin tug'ilgan futbolchilar mazkur limitdan mustasno).

14.15. Futbol klubiga ijara shartnomasi asosida kelib qo'shilgan futbolchi o'zining asl jamoasiga qarshi o'yinda maydonga tushishga haqli. FIFA nizomidan kelib chiqib, futbolchiga egalik qiluvchi klub shu futbolchini ikkinchi tomonga ijaraga berayotganda mazkur qoidani chetlab o'tishi mumkin bo'lgan har qanday shart qo'yishi taqiqlanadi.

14.16. U19 chempionatida kelishuv bitimi bilan ro'yxatdan o'tgan futbolchi O'FA va hududiy assotsiatsiyalar tomonidan o'tkaziladigan musobaqalarda to'p surishga haqli.

14.17. Futbol klubi U10, U12, U14, U16, ayollar U16 jamoasi uchun 20–22 nafar futbolchini shu yosh toifasidagi musobaqaning alohida Nizomida ko'rsatilgan sanaga qadar O'FA ro'yxatidan o'tkazishi talab etiladi.

15-bob

Futbol klubi, klub rasmiylari hamda futbolchilar majburiyatini tartibga solish

15.1. Futbol klubi Reglamentda belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar hisoblanadi.

15.2. Futbol klubi vakili yuqori darajadagi intizom, tartiblilik, uyushqoqlik, o'zaro va tomoshabinlarga nisbatan hurmatni namoyish etib, mazkur Reglamentning barcha talablariga rioya qilishi talab etiladi.

15.3. Futbol klubi o'z vakillarining xulq-atvori uchun bevosita mas'ul. Ular Liga komissari, inspektor va hakamlar harakatiga aralashishi taqiqlanadi.

15.4. Futbol klubi o'z tomoshabinlari (jamoa muxlislari), shuningdek, klub nomidan biror-bir uchrashuvda muayyan vazifani bajarayotgan har qanday shaxs xulqi uchun javobgar hisoblanadi.

15.5. Futbol klubi hamda stadion uchrashuv o'tkazilishi bilan bog'liq zarur tashkiliy masalalarni hal etish uchun mas'ul hisoblanadi. Ular uchrashuv xavfsizligi hamda tez tibbiy yordam uchun mas'ul organlar bilan hamkorlikda uchrashuvdan oldin, uchrashuv davomida va uchrashuvdan keyin stadionda, unga tutash hududda intizom hamda jamoatchilik tartibini saqlash uchun barcha zarur chorani ko'rishi talab etiladi.

15.6. Futbol klubi mazkur Reglamentning 16.13 hamda 16.14-bandlari bo'yicha bevosita javobgar hisoblanadi.

15.7. Futbol klubi xalqaro turnir yoki xorijdagi o'quv-mashg'ulot yig'ini muddati, joyi aniq bo'lishi bilan O'FA hamda Ligani bundan xabardor qilishi talab etiladi.

15.8. Futbol klubi uchrashuv startiga 20 kundan kam bo'lmagan muddatda bor vaqtda Ligaga mazkur uchrashuvni sanasi yoki vaqtini o'zgartirish borasida batafsil asoslangan rasmiy murojaat bilan chiqishga haqli. Bunday holatda yakuniy qaror Liga tomonidan e'lon qilinadi.

15.9. Uchrashuv mezboni bo'lgan futbol klub uchrashuv rasmiylarining xavfsizligi uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

15.10. Uchrashuv rasmiylari xonasiga faqatgina Liga komissari ruxsat etgan shaxsning kirishi uchun ruxsat etiladi.

15.11. Mezbon futbol klubi uchrashuv uchun Liga taqdim etgan kamida 8 ta to'p taqdim etishi hamda mazkur to'plardan uchrashuv yakuniga qadar to'liq foydalanilishini tashkil etishi talab etiladi.

15.12. Mezbon futbol klubi to'p uzatib turish uchun 10 nafar yoshi 12 dan kichik hamda 16 dan katta bo'lmagan, libosi maydondagi futbolchi va hakam libosidan farqlanadigan ko'ngillilar guruhini (keyingi o'rinda – ballboy) taqdim etishi talab etiladi.

15.13. Liga komissari mezbon futbol klubidan uchrashuvni o'tkazishda ko'maklashuvchi qo'shimcha ko'ngillilar guruhini mazkur bobning 12-bandiga qo'shimcha ravishda talab qilishga haqli.

15.14. Mezbon futbol klubi zarur holatlarda ballboy Liga tomonidan taqdim etilgan ustki libosni kiyishini nazoratga olish hamda ballboy uchrashuvni o'tirib tomosha qilishi uchun ko'chma o'rindiq taqdim etish uchun mas'ul hisoblanadi.

15.15. Uchrashuv davomida ovoz kuchaytirgich orqali e'lon qilinadigan har qanday xabar yoki signal Liga komissari bilan kelishilgan bo'lishi talab etiladi.

15.16. Liga komissari zaruriyatdan kelib chiqib, uchrashuvni o'tkazish uchun mazkur Reglamentda qayd etilmagan kerakli vositalar bilan ta'minlash masalasini mezbon futbol klubidan talab qilishga haqli.

15.17. Mezbon futbol klubi mehmon klubga uning rasmiylari musobaqa o'tkaziladigan shahar doirasida vokzal yoki aeroportdan mehmonxonagacha borishi, qaytishi, mashg'ulot o'tadigan kunlarda mehmonxonadan stadiongacha borishi va qaytishi uchun kamida 42 o'rinli zamonaviy avtobusni bepul taqdim etishi talab etiladi.

15.18. Mehmon futbol klubi mezbon klubdan bir marta mashg'ulot o'tkazish uchun musobaqa o'tadigan stadion maydonini talab qilishga haqli. Bunda rasmiy mashg'ulot davomiyligi mashg'ulotgacha bo'lgan tadbirlardan tashqari 60 daqiqadan oshmasligi talab etiladi.

15.19. Mazkur bobning 18-bandi uchrashuvdan bir kun avvalgi kunning aynan uchrashuv start oladigan soatini nazarda tutadi. Maydon holatidan kelib chiqib, Liga komissari rasmiy mashg'ulotni bekor qilishga haqli hisoblanadi.

15.20. Mehmon futbol klubi uchrashuv gacha o'n kundan kam bo'lmagan muddatda mezbon klubga o'zining kelish sanasi, delegatsiya a'zolarining soni, mashg'ulotlar vaqti haqida xabar berishi talab etiladi.

15.21. Mezbon futbol klubi uchrashuv rasmiylarining eng yaqin vokzal yoki aeroportdan mehmonxonagacha borishi, qaytishi, mashg'ulot o'tadigan kunlarda mehmonxonadan stadiongacha borishi va qaytishi uchun transport bilan ta'minlashi talab etiladi.

15.22. Mezbon futbol klubi va vaziyatdan kelib chiqib mehmon futbol klubi o'yin tugashi bilan 120 daqiqa ichida inspektorga hamda 24 soat ichida Ligaga uchrashuvning raqamli shakldagi videoyozuvini talab qilingan formatda taqdim etishi shart. Bunda tasvir jamoalarning maydonga chiqish paytidan to kiyinish xonasiga qaytishlarigacha shartli ravishda taymer yoqilgan holda butun uchrashuv davomida uzluksiz suratga tushirilishi zarur.

15.23. Mezbon futbol klubi stadion bilan kelishgan holda rasmiy uchrashuvni teletranslyatsiya qilish hamda VAR tizimi uzilishlarsiz ishlashini ta'minlash uchun tezligi eng kamida 100 mbit/s bo'lgan hamda mazkur internetdan Liga talabiga ko'ra teletranslyatsiyalar hamda VAR texnikalaridan boshqa manbalar foydalana olmaydigan alohida internet tarmog'ini taqdim etishi shart. Rasmiy uchrashuv davomida internet tarmog'idagi har qanday uzilishlar sabab jonli efir yoki translyatsiya bilan bog'liq muammolarning kelib chiqishiga bevosita mezbon futbol klubi javobgar hisoblanadi.

15.24. Favqulodda holatlar hamda epidemiologik vaziyatlarda musobaqaning tashkiliy masalalari qo'shimcha Reglament yoki Liganing rasmiy talabi bilan tartibga solinadi.

16-bob

Rasmiy uchrashuvni o'tkazish tartibi

16.1. Har qanday jamoaning ikki rasmiy uchrashuvi o'rtasidagi vaqt oraligi 48 soatdan kam bo'lmasligi ta'minlanadi.

16.2. Uchrashuvlar davomiyligi 45 daqiqadan ikki taym bo'ladi. Taymlar orasidagi tanaffus 15 daqiqani tashkil etadi.

16.3. Ob-havo haroratidan kelib chiqib, uchrashuv bosh hakami klublardan birining taklifiga ko'ra, bo'limlar davomida bir marta suv ichish uchun 1 daqiqadan ko'p bo'lmagan tanaffus e'lon qilishi mumkin.

16.4. Musobaqa oldi jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi (uchrashuv startigacha):

- 180 daqiqa — Liga komissarining stadiongacha kelishi;
- 90 daqiqa — inspektor va hakamlarning kelishi;
- 90 daqiqa — jamoalarning kelishi;
- 90 daqiqa — uchrashuv qaydnomasini to'ldirish uchun futbolchilar litsenziyasini Liga komissariga taqdim etish;
- 50–20 daqiqa — chigalyozdi mashg'ulotlari;

- 15 daqiqa — futbolchilar libosi va ulardagi belgilar tekshiruvi, raqamlarning litsenziyaga muvofiqligi;
- 10-5 daqiqa — jamoalarning tribuna osti yo'lakchasida saflanishi.
Klublar Liga komissari taqdim etgan Countdown tartibiga qat'i rioya qilishi lozim.

16.5. Musobaqa davomida almashtiriladigan futbolchilarning ruxsat etilgan soni:

- Superliga/Pro liga — uch urinishda 5 ta (bunda tanaffus vaqtidagi o'zgarish urinish sifatida qayd etilmaydi);
- U19/U21 — umumiy 7 ta, bunda o'yin vaqtida uch urinishda 5 ta hamda tanaffus vaqtida qo'shimcha 2 ta.

16.6. Futbol klubi musobaqa davomida Liga tomonidan taqdim etilgan professional futbol to'plaridan foydalanishi shart. Futbol klubi mashg'ulotlari uchun to'plarni mustaqil ravishda sotib olishi talab etiladi.

16.7. Chempionlar ligasidagi ishtiroki sabab OFK tomonidan taqdim etilgan to'plarga ega klublar ham Liga musobaqasida Liga to'plaridan foydalanadi.

16.8. Futbol klubi uchrashuv startidan 90 daqiqa elektron qaydnomaga futbolchilarning ismi-familiyasi, raqamlarini o'sish tartibida hamda amplusini, rasmiy shaxslarning ismi-familiyasi va lavozimini litsenziyada ko'rsatilgani bo'yicha kiritish uchun Liga komissariga futbolchilar va klub rasmiylari litsenziyasini taqdim etishi talab etiladi.

16.9. Futbol klubi uchrashuv startidan 90 daqiqa avval Liga komissariga klub asosiy tarkibi futbolchilarining maydondagi joylashuvi aniq ko'rsatilgan sxemani taqdim etishi talab etiladi.

16.10. Musobaqa qatnashchisi uchrashuv qaydnomasiga 11 nafar asosiy va 9 nafar zaxira futbolchisini kiritishi uchun ruxsat etiladi.

16.11. Uchrashuv qaydnomasidan Liga litsenziyaga ega bo'lgan 9 nafargacha rasmiy shaxs joy olishi uchun ruxsat etiladi.

16.12. Mazkur bobning 11-bandida ko'rsatilgan klub rasmiylari orasida klub shifokorining bo'lishi shart.

16.13. Futbol klubi uchrashuv qaydnomasiga diskvalifikatsiya qilingan futbolchini kiritgan holatda g'abala qozonsa yoki durang o'ynasa, unga nisbatan mazkur Reglamentning 10.11-bandi bo'yicha texnik mag'lubiyat yoziladi. Bunda ushbu uchrashuvda urilgan gollar hisobdan chiqariladi, ammo olingan ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchida qoladi.

16.14. Diskvalifikatsiya qilingan futbolchini qaydnomaga kiritgan holatni sodir etgan futbol klubi o'sha uchrashuvda 0:3 dan yirikdan ko'rinishda mag'lubiyatga uchragan bo'lsa, texnik mag'lubiyat mazkur Reglamentning 10.13-bandi bo'yicha mavjud hisob bilan yoziladi.

16.15. Futbol klubi stadiona kechikib yetib kelgan futbolchini qaydnomaga uchrashuv startiga 20 daqiqa qolguniga qadar kiritishga haqli. Buning uchun klub rasmiysi Liga komissariga murojaat qilishi talab etiladi.

16.16. Liga komissari hamda bosh murabbiy tomonidan imzolangan uchrashuv qaydnomasiga biror futbolchining kutilmagan jarohati sabab uchrashuv startigacha o'zgartirish kiritish zaruriyati vujudga kelsa, qaydnomaga o'zgartirish kiritiladi. Bunda jarohatlangan futbolchiga uchrashuvni zaxira o'rindig'ida kuzatish hamda faqatgina keyingi rasmiy uchrashuvdan boshlab maydonga tushish uchun ruxsat etiladi.

16.17. Futbol klubi shu bobning 16-bandidan kelib chiqib uchrashuv startigacha biror futbolchini almashtirishga majbur bo'lsa, klub uchrashuv davomida shu bobning 5-bandida ko'rsatilgan limitdan to'liq foydalanish huquqini saqlab qoladi.

16.18. Futbol klubi shu bobning 4-bandi bo'yicha stadiona belgilangan vaqtdan kechikib yetib kelsa, klub rasmiysi Liga komissaridan futbolchilar kiyim almashtirishi hamda chigalyozdi mashg'ulotlarini o'tkazishi uchun umumiy hisobda yana 15 daqiqa vaqt so'rashga haqli.

16.19. Uchrashuv belgilangan vaqtdan 16 daqiqaga kechikishni boshlasa, aybdor futbol klubiga nisbatan mazkur Reglamentning 10.11-bandi qo'llaniladi.

16.20. Tez tibbiy yordam mashinalari yoki xavfsizlik uchun javobgar organlarning kechikishi oqibatida uchrashuv o'z vaqtida start olmasa, Liga komissari 30 daqiqadan keyin mezbon klubga nisbatan Reglamentning 10.11-bandini qo'llashga haqli bo'ladi.

16.21. Futbol klubi vakili uchun litsenziya musobaqada ishtirok etish va tegishli zonaga kirish huquqini beruvchi yagona hujjat hisoblanadi. Litsenziya egasi uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan taqdirida texnik zonaga qo'yiladi.

16.22. Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan shaxs hamda zaxira futbolchilari texnik zonada maxsus ajratilgan joyda bo'lishi shart. Mezbon jamoa zaxira hakamining chap tomonida, mehmon jamoa o'ng tomonida maydonga qarab joylashadi.

16.23. Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan shaxs ko'ksida texnik zonaga kirishga ruxsat beruvchi litsenziya bo'lishi talab etiladi (bosh murabbiy bundan mustasno).

16.24. Uchrashuv qaydnomasiga kirgan zaxira futbolchisiga o'z zaxira o'rindig'iga eng yaqin maydon burchagida to'psiz (darvozabon bundan mustasno) chigalyozdi mashg'ulotini bajarish uchun ruxsat etiladi.

16.25. Shu bobning 21-bandidagi chigalyozdi mashg'ulotida klub rasmiylari orasidan faqatgina jismoniy tayyorgarlik bo'yicha murabbiyning ishtirok etishi uchun ruxsat etiladi.

16.26. Shu bobning 21 hamda 22-bandlarida qayd etilgan shaxslar libosi maydondagi futbolchilar va hakamlar libosidan farqlanishi talab etiladi.

16.27. Texnik zonada tamaki va boshqa turdagi mahsulotlar chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish taqiqlanadi.

16.28. Uchrashuv qaydnomasidan joy olgan rasmiy shaxsga mobil aloqa vositasidan foydalanish taqiqlanadi (maxsus ruxsat etilgan texnik vositalar bundan mustasno). Bunda hech qanday texnik vosita uchrashuv rasmiylariga e'tiroz bildirish uchun asos bo'lmasligi shart.

16.29. Futbol klubi bosh murabbiyi texnik zonada dress-kodga amal qilish talab etiladi.

16.30. Uchrashuv vaqtida futbol klubi rasmiylari orasidan faqatgina bosh murabbiyga texnik zonada futbolchilarga ko'rsatma berish uchun ruxsat etiladi. Bunda bosh murabbiy chet el fuqarosi bo'lib, futbolchilar bilan muloqot uchun tarjimon yordami zarur bo'lsa, bosh murabbiy ko'rsatma berishda tarjimondan foydalanishga haqli.

16.31. Futbol klubi bosh murabbiyi diskvalifikatsiya yoki boshqa sabab bilan uchrashuvda ishtirok eta olmayotgan bo'lsa, shu bobning 30-bandi bo'yicha texnik zonada futbolchilarga ko'rsatma berish vakolati bor klub rasmiysi qaydnoma to'ldirish jarayonida Liga komissariga alohida ko'rsatilishi talab etiladi.

16.32. Mezbon futbol klubi uchrashuvdan 60 daqiqa oldidan maydon chimini sug'orishi talab etiladi. Ob-havo sharoitidan kelib chiqib, mazkur masala Liga komissari tomonidan tartibga solinadi.

16.33. Musobaqa Liga tomonidan belgilangan muddat va vaqtda o'tkaziladi. Vaqti (kun va soat) quyidagi hollarda o'zgartirilishi mumkin:

- oldindan taxmin qilishning imkoni bo'lmagan fors-major vaziyat va hodisalarning yuzaga kelishi natijasida uchrashuvni o'tkazish, boshlash, davom ettirish, qayta boshlash va tugatish imkoni bo'lmaganida. Bunday hodisalar qatoriga avariya, yong'in, suv toshqin, zilzila, epidemiologik va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek, musobaqa tashkilotchilari va futbolchilarga bog'liq bo'lmagan har qanday boshqa tafsilotlar kiradi. Bunday holatlarda uchrashuvning qachon va qay tartibda davom ettirilishi masalasi Liga tomonidan belgilanadi;
- musobaqa jadvaliga Liga tomonidan o'zgartirish kiritilganida.

16.34. Elektr yoritish tizimidagi muammo 60 daqiqa ichida bartaraf etilmagani oqibatida uchrashuvni boshlash, davom ettirish, qayta boshlash va tugatish imkoni bo'lmasa, maydon egasi bo'lgan futbol klubiga nisbatan mazkur Reglamentning 10.11 yoki 10.13-bandlardan biri bo'yicha texnik mag'lubiyat yoziladi.

17-bob

Musobaqa qatnashchisining libosiga qo'yiladigan talablar

17.1. Musobaqa ishtirokchilarining futbolkasiga futbol klubi ramzi tushiriladi. Ramz o'lchami 100 sm² gacha (10 sm x 10 sm) bo'lib, u futbolkaning chap ko'krak qismida joylashadi.

17.2. Futbol klubi har beshinchi chempionlik maqomini qo'lga kiritgach, klub ramzining tepa qismida bir dona oltin yulduzchani aks ettirish huquqiga ega.

17.3. Futbolkaning o'ng yengida Liga ramzi, chap yengida esa Liga titul homiysi ramzi aks etishi talab etiladi.

17.4. Futbolka old tomonining yurak (markaz) qismida O'zbekiston davlat bayrog'i aks etishi talab etiladi. Bayroq o'lchami 24 sm^2 ($4 \text{ sm} \times 6 \text{ sm}$) bo'lishi lozim. Bunda bayroq alohida ajralib turishi uchun uning atrofi oq chiziq bilan qoplanadi. Chiziq qalinligi 3 mm bo'lishi tavsiya etiladi.

17.5. Futbolka orqa tomonining tepa kurak qismida futbolka egasining ismi yoki familiyasi (tahallus) o'zbek lotin alifbosida yozilgan bo'lishi talab etiladi. Liga futbol klubidan futbolchining ism yoki familiyasini o'zbek tilida to'g'ri yozishni talab etishga haqli. Bunda ism yoki familiya balandligi 5-8 sm oralig'ida hamda "Jersey M54" shriftida bo'lishi shart.

17.6. Futbolchining litsenziyasida ko'rsatilgan futbolka raqami uning futbolkasining orqa tomonida — bel hamda kurak qismi oralig'ida balandligi 25–35 sm hamda "Jersey M54" shrifti bilan aks etishi talab etiladi.

17.7. Futbolchi shortisining o'ng oyoq pastki qismida futbolchining futbolkasidagi raqam balandligi 10–15 sm oralig'ida aks ettirilishi talab etiladi.

17.8. Shu bobning 5, 6 hamda 7-bandlarida ko'rsatilgan yozuvlar libos rangidan aniq farqlanishi hamda hamma uchun birdek ko'rimli bo'lishi shart. Bunda aralash rangli futbolda yozuv alohida rangdagi to'g'ri to'rtburchak yoki futbolka ranglariga proporsional rangda ko'rsatiladi.

17.9. Futboldagi barcha yozuvlar bir xil rangda bo'lishi shart. Och rangli futbolda tilla rangda yozuv yozish taqiqlanadi.

17.10. U19 hamda U21 chempionatida ishtirok etuvchi jamoa libosi asosiy jamoaniki bilan bir xil bo'lishi talab etiladi.

17.11. U19, U21 hamda asosiy tarkib futbolchilarining raqami bir-birini takrorlamasligi talab etiladi.

17.12. Xalqaro musobaqada ishtirok etadigan klubga ism yoki familiyani (taxallus) ingliz tilida yozishga ruxsat etiladi.

17.13. Futbol klubi ro'yxatdan o'tish oldidan Ligaga yangi mavsum uchun liboslarning 3D formatini taqdim etishi talab etiladi. Musobaqa startiga 10 kun vaqt qolguncha klub futbolchilar va darvozabonlar libosining asosiy hamda rezerv ranglari haqida to'liq axborot taqdim etishi shart.

17.14. Liga uchrashuv oldidan futbol klublari libosining rangini belgilashga haqli. Bunda Liga mezbon futbol klubining uy libosidan kelib chiqadi.

17.15. Darvozabon libosi ikki jamoa va hakamlar libosidan farqlanishi talab etiladi.

18-bob

Futbol klubining OAV bilan ishlashini tartibga solish

18.1. Liga bosh axborot hamkorini belgilash huquqiga ega.

18.2. Futbol klubi o'z rasmiy saytiga ega bo'lishi shart.

18.3. Futbol klubi matbuot xizmati boshqa klub, shuningdek, Ligaga aloqador ma'lumotni ruxsatsiz chop etishga haqli emas.

18.4. Futbol klubi matbuot xizmati o'z stadionida o'tkazilgan uchrashuvdan fotosuratlarni Liga matbuot xizmati talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

18.5. Stadion darvozalari chizig'i ortida Liga akkreditatsiyasidan o'tgan, maxsus nimcha kiygan tele va fotomuxbirlar ishlashi uchun ruxsat beriladi. Ularning uchrashuv davomida belgilangan hududdan tashqarida harakatlanishi mumkin emas.

18.6. Futbol klubi bosh murabbiyi uchrashuvdan keyingi matbuot anjumanida ishtirok etishi shart. Uchrashuv tugaganidan keyingi 15 daqiqa oralig'ida mag'lub bo'lgan yoki mehmon jamoa birinchi bo'lib matbuot anjumaniga taklif etiladi.

18.7. Futbolchi va murabbiy uchrashuvdan oldin va keyin bo'ladigan flesh-intervyuda ishtirok etishi shart.

18.8. Futbol klubi matbuot xizmati uchrashuvdan keyingi matbuot anjumanini o'tkazish uchun mas'ul hisoblanadi.

18.9. Matbuot xizmati vakili futbol klubi ishtirokidagi safar uchrashuviga borishi va matbuot anjumanida ishtirok etishi shart.

19-bob

Futbol klubining musobaqada ishtirok etishi uchun moliyaviy shartlar

19.1. Futbol klubi Liga musobaqasida qatnashish uchun belgilangan miqdorda qatnashchilik badal pulini (keyingi o'rinlarda – badal) to'lab berishi talab etiladi. Badal miqdori Liga ljroiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

19.2. Musobaqada ishtirok etuvchi futbol klubi rasmiy uchrashuvni tashkil etish bilan bog'liq barcha sarf-xarajatni o'z zimmasiga oladi.

19.3. Agar futbol klubi musobaqa qatnashchilari tarkibidan chiqarilgan bo'lsa, u tomonidan avval amalga oshirilgan badal va boshqa to'lovlar qaytarilmaydi.

19.4. Qatnashchilar tarkibidan chiqarilgan futbol klubiga badal pulidan qolgan qarzdorlikni to'liq to'lab berish shartida Liga tomonidan tashkil etiladigan musobaqada ishtirok etishiga ruxsat etiladi.

19.5. Liga o'zi tashkil etayotgan musobaqada faoliyat olib boruvchi komissarlari xizmati uchun to'lovlar, uning ikki tomonlama yo'lkirasi hamda yashashi uchun xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

19.6. Musobaqada faoliyat olib boruvchi hakamlar va nazoratchi uchun ikki tomonlama yo'lkira va yashash xarajatlari O'zFHM tomonidan amalga oshiriladi.

19.7. Uchrashuv rasmiysining ovqatlanishi, kutib olinishi, kuzatilishi bilan bog'liq xarajatlar mezbon futbol klubi hisobidan amalga oshiriladi. Bunda uchrashuv rasmiylarini kutib olish lokatsiyalari Liga Ijroiya qo'mitasi qarori bilan har bir klub uchun alohida belgilab beriladi.

19.8. Musobaqada faoliyat olib boruvchi hakamlar hamda nazoratchi uchun xizmat to'lovlari O'zFHM tomonidan amalga oshiriladi.

19.9. Liga Ijroiya qo'mitasi badal to'lovi, jarimalar bo'yicha qarzdorlik, shuningdek, legioner futbolchi va xorijiy mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun belgilangan to'lovni to'lamagan yoki belgilangan muddatda to'liq to'lamagan futbol klubini musobaqa qatnashchilari safidan chetlashtirishga, Liga esa bunday futbol klubiga nisbatan transfer oynasi davomida yangi futbolchini ro'yxatdan o'tkazishga taqiq qo'yishga haqli.

19.10. Rasmiy uchrashuvga mezbonlik qilayotgan futbol klubi mehmon futbol klubining rasmiy murojaatiga asosan kamida 100 ta bepul chipta ajratishi shart. Buning uchun mehmon futbol klubi uchrashuv startigacha 24 soat vaqt qolganiga qadar mezbon futbol klubiga rasmiy murojaat bilan chiqishi talab etiladi.

19.11. "Litsenziyalash reglamenti" talabiga ko'ra, futbol klubi yilda ikki marta O'FA tomonidan jalb etilgan mustaqil auditor tomonidan audit tekshiruvdan o'tkaziladi. Audit xizmati uchun to'lov futbol klub tomonidan qoplanadi.

20-bob

Liga komissarining musobaqadagi faoliyatini tartibga solish

20.1. Uchrashuvni tashkil etish va o'tkazishni nazorat qilish uchun Liga tomonidan komissar tayinlanadi.

20.2. Uchrashuvni boshlash yoki uni o'tkazmaslik masalasi bevosita Liga komissari tomonidan hal qilinadi.

20.3. Liga komissarlari ro'yxati maxsus o'quv-seminarida ishtirok etib, uning yakuniga ko'ra tavsiya etilgan mutaxassislar orasidan shakllantiriladi.

20.4. Liga komissari uchrashuv startiga 60 daqiqa qolguniga qadar zaxira hakami va klub rasmiysi bilan birgalikda uchrashuv qaydnomasiga futbolchilarning ism-familiyasi, ampluasi va raqamlarini (o'sish tartibida), shuningdek, rasmiy shaxslarning lavozimini ko'rsatgan holda kiritadi.

20.5. Liga komissari uchrashuvni mazkur Reglamentga muvofiq tashkil etish, xavfsiz o'tkazilishini nazorat qilish, xuquq-tartibot organlari, stadion va klub rasmiylari, futbolchilar, tomoshabinlar harakatlarini baholash uchun mas'ul hisoblanadi.

20.6. Liga komissari uchrashuvga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish borasida bahsli masalalar yuzaga kelgan hollarda xal etuvchi ovozga ega.

20.7. Nazoratchi va hakamlar brigadasi Liga komissariga bo'ysunadi.

20.8. Liga komissari bilan bog'liq majburiyatlar va komissarlikka oid vakolatlar "Komissar yo'riqnomasi"da aks etadi.

21-bob

Musobaqada hakamlik qilishni tartibga solish

21.1. Hakamlik mazkur Reglament va IFAB tomonidan qabul qilingan o'zgartirish, qo'shimchalar asosida amalga oshiriladi.

21.2. Musobaqada O'zFHM tomonidan tayinlangan hakamlar faoliyat olib boradi.

21.3. O'FA va Liga shtat xodimi, hududiy futbol assotsiatsiyasi rahbari, shuningdek, futbol klubida faoliyat olib boruvchi shaxsning hakamlik qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

21.4. Futbol klubi uchrashuvga tayinlangan hakamni almashtirish borasida murojaat qilishga haqli emas.

21.5. Uchrashuvga tayinlangan hakamlar brigadasi unga yetib kela olmasa, O'zFHM uchrashuvga HA hakamlaridan birini tayinlaydi. Yordamchi hakamlardan biri biror sababga ko'ra maydonga chiqa olmasa, zaxira hakami uning o'rnini egallaydi va bir vaqtning o'zida zaxira hakami vazifasini ham bajaradi.

21.6. Uchrashuv boshlanishidan kamida bir soat oldin bosh hakam Liga komissari bilan birga futbol maydonini ko'zdan kechiradi va uning sifatini 5 ballik tizimda baholaydi. Mazkur baho uchrashuv qaydnomasida ko'rsatiladi. Baholash jarayonida maydon bilan bog'liq muammo yuzaga kelsa, mezbon tomon mazkur muammoni uchrashuv startigacha hal qilishi talab etiladi.

21.7. Zaxira hakami Liga komissari bilan birgalikda klub rasmiylari litsenziyasini tekshiradi. Futbol klubi rahbarlari hamda klub rasmiy shaxslari futbolchilarni uchrashuvda ishtirok etishi qoidalariga rioya qilishi uchun mas'ul.

21.8. Maydonga chiqishdan avval hakamlar brigadasi uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan futbolchilar litsenziyasini tekshirishi, shuningdek, futbolchilarning raqamlari uchrashuv qaydnomasiga mos ekanligini solishtirishi talab etiladi.

21.9. Futbolchini almashtirish oldidan zaxira hakamiga almashtirish varaqasi taqdim etiladi.

21.10. Zaxira hakami maydon perimetri bo'ylab texnik va boshqa zonalarga oid xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi uchun mas'ul. U to'p uzatib turadigan yosh futbolchilar va o'z xizmat vazifasini bajaradigan boshqa texnik xodimlarga tegishli yo'riqnoma beradi.

21.11. Uchrashuv yakunlangandan so'ng bosh hakam Liga komissari bilan birga 30 daqiqa davomida uchrashuv qaydnomasini to'ldirishi talab etiladi. Agar uchrashuv davomida ogohlantirishlar, chetlashtirishlar va futbolchilar jarohatlari, shuningdek, stadionda tartibbuzarliklar yuz bergan bo'lsa, bosh hakam Liga komissari bilan birgalikda bu haqda batafsil uchrashuv qaydnomasida bayon etishi shart.

21.12. Uchrashuvdan oldin, uchrashuv davomida va uchrashuvdan keyin, shuningdek, hakamlar xonasida yoki hakamlar brigadasining yo'lida yuz bergan barcha noxushliklar va chetlatishlar (ikkinchi ogohlantirish va "yaqqol gol urish uchun imkoniyatidan mahrum qilish" uchun chetlashtirish bundan mustasno) haqida bosh hakam va uning yordamchilari komissarni ogohlantirib, Liga nomiga bildirgi xati yuborishi shart.

21.13. Hakam uchrashuvda yuz bergan ogohlantirish yoki chetlatish, boshqa noxushliklar haqida ma'lumotlarni qaydnomaga kiritishni Liga komissariga bildirmagan bo'lsa, u O'FA "Intizom kodeksi"ga muvofiq musobaqalarda faoliyat olib borishdan ma'lum muddatga chetlashtiriladi.

21.14. O'FA, O'zFHM va O'zPFL o'zaro kelishgan holda musobaqaga xorijlik hakam yoki hakamlar guruhini jalb qilishga haqli.

21.15. Hakamlar brigadasi Liga komissariga bo'ysunadi.

22-bob

Musobaqada nazoratchilik qilishni tartibga solish

22.1. Musobaqada O'zFHM tomonidan tayinlangan nazoratchi faoliyat olib boradi.

22.2. Futbol klubi uchrashuvga tayinlangan nazoratchini almashtirish borasida murojaat bilan chiqishga haqli emas.

22.3. Nazoratchi mazkur Reglament va IFAB tomonidan qabul qilingan o'zgartirish, qo'shimchalar, "Futbol bo'yicha musobaqalarda hakamlar sifatini baholash bo'yicha yo'riqnoma" talablariga qat'i rioya etishi shart.

22.4. Liga komissari ishtirok etmayotgan uchrashuvda O'zFHM nazoratchisi uchrashuv davomida Liga komissari vazifasini bajarishi talab etiladi.

22.5. Nazoratchi Liga komissariga bo'ysunadi.

23-bob

Hakam qaroriga shikoyat yoki e'tiroz berish tartibi

23.1. Hakam qarorlari bo'yicha shikoyat yoki e'tiroz mazkur Reglamentga muvofiq beriladi va ko'rib chiqiladi.

23.2. Hakamlik sifatiga nisbatan futbol klubida e'tirozlar mavjud bo'lsa, bosh murabbiy yoki sport direktori uchrashuv yakuniga yetganidan keyingi 30 daqiqa ichida bu haqda Liga komissariga ma'lum qilishga hamda o'z e'tirozini uchrashuv qaydnomasida imzolashni talab qilishga haqli.

23.3. Hakamlik sifatiga nisbatan rasmiy e'tiroz yozgan futbol klubi 24 soat ichida mazkur uchrashuv videoyozuvini (aniq holatlar daqiqalari bilan keltirilgan vaziyatning qisqacha ta'rifi) Ligaga taqdim etishi talab etiladi. Bunda hakamning mazkur Reglament va "O'yin qoidalari" talablaridan kelib chiqqan harakat yoki harakatsizligiga nisbatan e'tiroz beriladi.

23.4. Qaydnoma uchrashuv rasmiylari tomonidan imzolab bo'lingach, shikoyat va e'tirozlar qabul qilinmaydi.

23.5. Quyidagilar ko'rib chiqilmaydi:

- belgilangan muddatda kiritilmagan shikoyat yoki e'tirozlar;
- uchrashuv qaydnomasida qayd etilmagan shikoyat yoki e'tiroz;
- 48 soat davomida klub shikoyat yoki e'tiroz uchun pullik to'lovni amalga oshirmagan shikoyat yoki e'tiroz.

23.6. Musobaqa o'tkazishni tashkil etish bilan bog'liq shikoyat yoki e'tiroz Liga komissariga uchrashuv boshlanishidan kamida 60 daqiqa oldin yozma ravishda taqdim etiladi. Liga komissari mazkur e'tiroznomani musobaqa bildirgisiga ilova qiladi.

23.7. Hakamlik bilan bog'liq shikoyat yoki e'tiroz pullik to'lov Liga hisob-raqamiga amalga oshirilganidan so'ng ko'rib chiqish uchun tegishli qo'mitaga kiritiladi. Shikoyat yoki e'tiroz mazkur shikoyat uchun to'lov amalga oshganidan keyingi 3 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

Hakamlik bilan bog'liq shikoyat yoki e'tirozni ko'rib chiqish uchun to'lov:

- Superliga va Pro liga uchun — 10 000 000 so'm (o'n million);
- U19 va U21 chempionati uchun — 5 000 000 so'm (besh million).

23.8. Shikoyat yoki e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun amalga oshirilgan pullik to'lovning qaytarilishiga shikoyat yoki e'tirozning qanoatlantirilishi, shikoyat yoki e'tirozda keltirilgan tafsilotlarning asoslanganligi va mazkur Reglamentga zid ekanligining tan olinishi asos bo'ladi.

23.9. Futbol klubi o'z shikoyat yoki e'tirozi ko'rib chiqilishi uchun to'lovni uchrashuvdan keyingi ikki bank ish kuni ichida amalga oshirmasa va bu vaqtda shikoyat yoki e'tiroz qaytarib ham olinmagan bo'lsa, mazkur klub shu bobning 7-bandida ko'rsatilgan to'lov miqdorining teng yarmini jarima sifatida to'lab berishi talab etiladi.

23.10. Futbol klubi kiritgan e'tiroz yoki shikoyatini 48 soat ichida qaytarib olsa, unga nisbatan intizomiy chora qo'llanilmaydi.